OLIY TA’LIMDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL O‘QITISH (SEL) VA MENTORLIK MODULLARI ORQALI QIZLARNING LIDERLIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Otavaliyeva Odina Hamidullo qizi,
Davlatjonova Mohidil Ulug’bek qizi
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
*e-mail:*otavaliyevaodinahamidulloqizi@gmail.com
mohidildavlatjonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL) va mentorlik modullarini integratsiyalash orqali rivojlantirish masalasi nazariy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va genderga sezgir ta’lim konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi, unda SEL va mentorlik o‘zaro to‘ldiruvchi pedagogik mexanizmlar sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari SEL orqali shakllanadigan ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalar (o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish, mas’uliyatli qaror qabul qilish) talaba-qizlarning liderlik faoliyati uchun psixologik poydevor yaratishini, mentorlik esa ushbu resurslarni amaliy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilishini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, SEL va mentorlikning birgalikda qo‘llanilishi genderga sezgir pedagogik muhitni shakllantirish va talaba-qizlarda barqaror liderlik identifikatsiyasini rivojlantirish uchun samarali yo‘l hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *SEL, lider, mentor, kompetentsiya, ijtimoiy-emotsional o‘qitish, gender, oliy ta’lim.*

Аннотация. *В данной статье теоретически-аналитическим методом изучен вопрос развития лидерских компетенций у студенток высших учебных заведений посредством интеграции модулей социально-эмоционального обучения (SEL) и наставничества (менторинга). Методология исследования разработана на основе компетентностного, личностно-ориентированного и гендерно-чувствительного образовательных концепций, в рамках которых SEL и менторинг были проанализированы как взаимодополняющие педагогические механизмы. Результаты исследования показали, что социально-эмоциональные компетенции, формируемые посредством SEL (самосознание, самоуправление, социальная осознанность, управление взаимоотношениями, ответственное принятие решений), создают психологическую основу для лидерской деятельности студенток, тогда как менторинг выступает механизмом, направляющим данные ресурсы в практическую и социальную деятельность. Таким образом, совместное применение SEL и менторинга представляет собой эффективный путь для формирования гендерно-чувствительной педагогической среды и развития устойчивой лидерской идентичности у студенток.*

Ключевые слова: *SEL, лидер, ментор, компетенция, социально-эмоциональное обучение, гендер, высшее образование.*

Abstract. *This article examines, through a theoretical-analytical approach, the development of leadership competencies among female students in higher education institutions by integrating Social-Emotional Learning (SEL) and mentoring modules. The research methodology was developed based on competency-based, learner-centered, and gender-sensitive educational concepts, within which SEL and mentoring were analyzed as mutually complementary pedagogical mechanisms. The findings*

showed that the socio-emotional competencies formed through SEL, self-awareness, self-management, social awareness, relationship skills, and responsible decision-making create a psychological foundation for female students' leadership activity, while mentoring serves as a mechanism that channels these resources into practical and social engagement. In conclusion, the combined application of SEL and mentoring represents an effective pathway for shaping a gender-sensitive pedagogical environment and developing a stable leadership identity among female students.

Keywords: *SEL, leader, mentor, competency, social-emotional learning, gender, higher education.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va talabalar faolligini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasasi talabasining jamiyatda va ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlash hamda intellektual salohiyatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat akademik bilimga ega, balki ijtimoiy mas’uliyatli, emotsional barqaror va yetakchilik qobiliyatlariga ega shaxslarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ayniqsa, talaba-qizlarda liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, liderlik faqat kognitiv bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalar majmuasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’limda SEL va mentorlik modullarini integratsiyalash talaba-qizlarda liderlik salohiyatini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirish masalasi faqat individual rivojlanish doirasida emas, balki jamiyatdagi gender rollari va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayollarning yetakchi pozitsiyalarda yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi ko‘pincha tarixiy va madaniy stereotiplarga tayanadi. Ta’lim tizimi esa ushbu stereotiplarni bartaraf etish va qizlarda o‘ziga ishonch, ijtimoiy mas’uliyat hamda yetakchilik identifikatsiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng samarali mexanizmdir.

Ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL) XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan psixologik va pedagogik nazariyalarga tayanib, 1990-yillarda emotsional intellekt konsepsiyasi bilan boyidi va 1994-yilda CASEL tashkil etilishi orqali mustaqil ta’lim yo‘nalishi sifatida rasmiylashdi. Bugungi kunda SEL global ta’lim strategiyalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot oliy ta’limda SEL va mentorlik modullarining talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, kompleks nazariy-metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va genderga sezgir ta’lim konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar xalqaro miqyosda ta’lim sifati va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqot dizayni nazariy-tahliliy va konseptual xarakterga ega bo‘lib, unda SEL va mentorlik alohida pedagogik vositalar sifatida emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan, bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarni shaxsning ichki psixologik resurslarini rivojlantiruvchi asosiy omil, mentorlikni esa ushbu resurslarni ijtimoiy va kasbiy faoliyatga yo‘naltiruvchi amaliy mexanizm sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Nazariy asos: Domitrovich SEL modeli. Domitrovich va hammualliflar tomonidan 2020-yilda e’lon qilingan tadqiqot ijtimoiy-emotsional o‘qitishni (SEL) dalillarga asoslangan, tizimli va ko‘p darajali rivojlanish modeli sifatida talqin etadi. Mualliflar SELni faqat alohida ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki ta’lim muhiti, pedagogik jarayon va shaxsiy rivojlanishning o‘zaro ta’siridagi kompleks tizim sifatida asoslaydi. Modelning konseptual asosi ijtimoiy-kognitiv nazariya, rivojlanish psixologiyasi va ekologik yondashuvga tayangan bo‘lib, SELni shaxsning akademik, ijtimoiy va emotsional muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy resurs sifatida ko‘rib chiqadi.

Modelning markazida beshta asosiy ijtimoiy-emotsional kompetentsiya joylashgan:

1. O‘zini anglash (Self-awareness) — shaxsning o‘z emotsiyalari, qadriyatlari, kuchli va zaif tomonlarini anglash qobiliyati. Yuqori darajadagi o‘zini anglash liderlik identifikatsiyasining shakllanishi uchun zarur psixologik poydevor hisoblanadi.

2. O‘zini boshqarish (Self-management) — emotsiyalarni tartibga solish, stressni yengish va maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyati. Bu ko‘nikma murakkab vaziyatlarda barqaror qaror qabul qilishga imkon beradi.

3. Ijtimoiy anglash (Social awareness) — boshqalarning emotsiyalarini tushunish, empatiya ko‘rsatish va turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati. Bu kompetentsiya liderlikning axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli jihatini shakllantiradi.

4. Munosabatlarni boshqarish (Relationship skills) — samarali muloqot, hamkorlik, nizolarni konstruktiv hal qilish va jamoani boshqarish ko‘nikmalari. Liderlik doimo ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali namoyon bo‘lgani uchun bu komponent markaziy ahamiyatga ega.

5. Mas’uliyatli qaror qabul qilish (Responsible decision-making) — axloqiy me’yorlar, ijtimoiy oqibatlar va uzoq muddatli natijalarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish. Bu ijtimoiy-emotsional yetuklikning eng yuqori bosqichi bo‘lib, liderlikning strategik va axloqiy jihatlarini uyg‘unlashtiradi.

Domitrovich modeli oliy ta’lim sharoitida, ayniqsa, talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Model SELni shaxsiy rivojlanishdan ijtimoiy faollikka olib chiquvchi mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Mentorlik bilan integratsiyalashgan holda ushbu model qizlarda o‘ziga ishonch, liderlik identifikatsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari oliy ta’limda SEL va mentorlik modullarini integratsiyalash talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik va ijtimoiy samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan nazariy-tahliliy xulosalar zamonaviy xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi hamda SEL va mentorlikning alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilganda kuchli sinergetik ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Birinchidan, SEL orqali rivojlantiriladigan emotsional intellekt, o‘zini boshqarish va ijtimoiy sezgirlik kompetentsiyalari talaba-qizlarning liderlik faoliyatining psixologik poydevorini shakllantiradi. Zamonaviy liderlik ko‘proq avtoritar boshqaruvdan ko‘ra hamkorlik, empatiya va mas’uliyatli qaror qabul qilishga tayanadi, aynan ushbu sifatlar SEL kompetentsiyalari orqali rivojlanadi.

Ikkinchidan, mentorlik modullari SEL orqali shakllangan ichki shaxsiy resurslarni amaliy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mentorlik jarayonida talaba-qizlar o‘z imkoniyatlarini anglash, refleksiya qilish va liderlik rolini qabul qilishga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, SEL va mentorlik modullarining integratsiyasi genderga sezgir pedagogik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayonida faqat bilim va ko‘nikmalar emas, balki ijtimoiy stereotiplar, o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi va psixologik to‘siqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik jarayonda mentorlikning afzalliklari bir qator xorijiy tajribalarda ham o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlyandiya kabi davlatlarda “peer mentoring” va “peer tutoring” modellarining amaliyotga tatbiq etilishi o‘quvchilarning bilim darajasi, ijtimoiy adaptatsiyasi va akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rsatmoqda. Bu tajriba asosida O‘zbekiston ta’lim tizimida mentorlikni milliy qadriyatlar, ustoz-shogird an’analari va zamonaviy innovatsion yondashuvlar sintezida joriy etish muhim pedagogik ehtiyojga aylangan.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’limda SEL va mentorlik modullarini integratsiyalashgan holda qo‘llash talaba-qizlarning liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. SEL orqali shakllanadigan o‘zini anglash, o‘zini boshqarish va ijtimoiy sezgirlik kompetentsiyalari liderlik faoliyatining psixologik poydevorini yaratsa, mentorlik ushbu ichki resurslarni amaliy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ikki yondashuvning birgalikda qo‘llanilishi genderga sezgir pedagogik muhitni shakllantirish, qizlardagi ijtimoiy stereotip va psixologik to‘siqlarni yengish hamda barqaror liderlik identifikatsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

— Oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga SEL elementlarini alohida modul yoki fanlararo yondashuv sifatida kiritish;

— “Peer mentoring” tizimini milliy ustoz-shogird an’analari bilan uyg‘unlashtirgan holda institutsionallashtirish;

— Qizlar uchun maxsus liderlik va mentorlik dasturlarini pilot loyiha sifatida joriy etish va ularning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali baholash.

Kelgusi tadqiqotlar ushbu nazariy modelni amaliyotda sinash — ya’ni aniq oliy ta’lim muassasasida eksperimental guruhlar asosida empirik tekshirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. Mahoney, J. L., Weissberg, R. P., Greenberg, M. T., Dusenbury, L., Jagers, R. J., Niemi, K., Schlinger, M., Schlund, J., Shriver, T. P., VanAusdal, K., Yoder, N., & Domitrovich, C. E. (2021). Systemic Social and Emotional Learning: Promoting Educational Success for All Preschool to High School Students. American Psychologist, 76(7), 1128–1142. https://doi.org/10.1037/amp0000701
3. Allen, T. D., & Eby, L. T. (2021). The Blackwell handbook of mentoring: A multiple perspectives approach (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
4. OECD. (2021). *Beyond Academic Learning: First Results from the Survey of Social and Emotional Skills*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/92a11084-en
5. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education — A Tool on Whose Terms?* Paris: UNESCO.
6. **Topping, K. J. (2005). Trends in peer learning.** *Educational Psychology*, 25(6), 631–645. https://doi.org/10.1080/01443410500345172
7. **Colvin, J. W., & Ashman, M. (2010). Roles, risks, and benefits of peer mentoring relationships in higher education.** *Mentoring & Tutoring:*

Partnership in Learning, 18(2), 121–134.
https://doi.org/10.1080/13611261003678879

8. Mo‘minov, T. (2020). O‘zbekistonda ta’lim islohotlari: hozirgi holati va istiqbollari.